


Toshkent viloyatida sanoatni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 10 avgust kuni Toshkent viloyatida sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Shu yil 3 avgust kuni bo'lib o'tgan birinchi yarim yillikdagi iqtisodiy natijalar tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz Toshkent viloyatida sanoat rivoji uchun qulay sharoitlar borligi, bu sohada jiddiy o'zgarish qilish zarurligini ta'kidlagan edi. Shunga muvofiq, qo'shimcha chora-tadbirlar rejasি ishlab chiqildi.

Joriy yilning birinchi yarmida viloyatda qariyb 7 trillion 700 milliard so'mlik mahsulotlar tayyorlanib, o'sish 4,6 foizni tashkil etgan. Lekin bu mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past. Shu bois, yil yakunigacha jami 18 trillion so'mlik tovarlar ishlab chiqarib, yillik 8,5 foiz o'sishga erishish mo'ljallangan.

Buning uchun yangi loyihalarni amalga oshirish, kam quvvatda ishlayotgan yoki to'xtab qolgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish orqali hududiy sanoatni rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, transport-logistika, xizmatlar, qishloq xo'jaligi, qurilish sohalari ustuvor yo'nalish etib belgilangan.

Yig'ilishda ushbu sohalarda amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar taqdimot qilindi.



Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Masalan, Zangiota tumanida 1 ming 494 ta sanoat korxonasi bor. Joriy yilning 6 oyida ular tomonidan qariyb 600 milliard soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Bu yil 15 ta loyiha amalga oshirilib, yana 51 milliard soʻmlik quvvat tashkil etiladi.

Zangiota sanoat markazi loyihasini alohida aytib oʼtish mumkin. 116 hektar maydonda barpo etiladigan ushbu sanoat hududida 165 ta loyihami joylashtirish moʼljallangan. Ularning samarasida 12 mingta ish oʼrni yaratish, 48 million dollarlik eksport qilish va 9 million dollarlik import oʼrnini toʼldirish hisob-kitob qilingan.

Angren shahrida korxonalar soni nisbatan kam – 577 ta boʼlsa-da, ularning salohiyati yuqori. Shaharning Toshkent viloyati sanoat hajmidagi ulushi 28 foiz. Joriy yilning 6 oyida u yerda 2 trillion soʻmlikdan ziyod mahsulotlar tayyorlangan. Ikkinci yarim yillikda yana 15 ta loyiha ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 560 million dollarlik 124 ta loyiha shakllantirilgan. Ularning natijasida 39 mingta ish oʼrni, 3 trillion soʻmlik ishlab chiqarish quvvati tashkil etilishi koʼzda tutilgan.

Toshkent tumanida umumiy qiymati 335 milliard soʻmlik 32 ta, Chirchiq shahrida umumiy qiymati 422 milliard soʻmlik 20 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Yigʼilishda viloyatning barcha tuman va shaharlardagi imkoniyatlar koʼrib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatida imkoniyatlardan toʼgʼri foydalilmayotganini qayd etib, sanoat tarmoqlarida yangi loyihalarni koʼpaytirish, qoʼshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligini taʼkidladi. Yil yakuni bilan hududiy sanoat hajmini 40 foizga oshirish vazifasi qoʼyildi.

Mavjud zavodlar faoliyatini kengaytirish, sanoati rivojlanmagan tumanlarda korxonalar tashkil etish, yoʼl boʼyi xizmatlarini rivojlantirish boʼyicha topshiriqlar berildi.

Manba